



№ 1/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi



ADPI Ilmiy xabarnomasi

№ 1 2026 fevral

Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
2022-yil 25-oktyabrda
№ 045013 raqam bilan ro'yxatga olingan
ISSN 2181-4309

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy attestatsiya komissiyasi
Rayosatining 2024-yil 8-maydagi
№354-sonli qarori bilan
Pedagogika fanlari bo'yicha Oliy attestatsiya
komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar
ro'yxatiga kiritilgan.

Tahririyat manzili: 170100 Andijon shahri,
"Do'stlik" ko'chasi, 4uy, 216-xona.
Electron manzil: info@adpi.uz
Telegram: ADPI_Ilmiy_xabarnomasi
Telefon raqamlari: +998 91 484 40 90

1/1

BOSH MUHARRIR:
B.M. Rasulov- tarix fanlari doktori (DSc), professor
Mas'ul muharrir:
B.A. Sirojiddinov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

TAHRIR KENGASHI

S.Z. Zaynobiddinov- O'zRFA akademigi
I.R. Asqarov- kimyo fanlari doktori, professor
Sh.X. Yo'lchiyev- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor
A.E. Zaynabiddinov- biologiya fanlari doktori, professor
B.X. Amanov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor
A.A. Egamberdiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), professor
M.V. Xalimova- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Sh.J. Yusupova - pedagogika fanlari doktori, professor
Z.E. Azimova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
M.B. Artiqova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
V.A. Qodirov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
N.J. Abdullayeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
M.A. Tojiboyeva – filologiya fanlari doktori, professor
Sh.A. Xaitov- tarix fanlari doktori (DSc), professor
A.G. G'aniyev- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
M.K. Pozilov -biologiya fanlari doktori (DSc). professor
T.T. Kaziyeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
U.A. Usmanova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
D.T. Samatov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
A.Xakimov- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
M.T.Parpiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent
A.A. Zaparov- texnika fanlari nomzodi, professor
U.A. Saliyev- tarix fanlari nomzodi, professor
M.I. Israil- filologiya fanlari doktori, professor
L.A. Muxammadjonova- falsafa fanlari nomzodi, professor
Sh.A. Xasanov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
X.T. Komilova pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
M.Sh. Alimova - siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Q. Ibaybullayev- falsafa fanlari nomzodi, dotsent
D.T. Samatov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
O'M. Muxtarov- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
S.N. Yusupova- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
B.M. Do'monov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E.A. Tajimirzayev- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
K.S. Karimov – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
A.A. Yuldashyev- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.J. Abduraxmonova - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.M. Muydinova- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
J.B. Qoraboyev- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
N.T. Mo'yidinov- kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
D.A. Sobirova- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E.B. Abdullayev- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'.Sh. G'ulomov- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
L.S. Yunusov - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
U.Sh. Uktamov - geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
M.G'. Ergasheva - tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)
N.S. Yaqubov- tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)
M.I. O'rinboev- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muharrirlar:
O.Karimov,
U.Malikova,
B. Mashrabova.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Hasanov Sh.A. Adabiyot fani o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari talqini	4
Qoraboyev J.B. "Giperbola konseptual semantikasi"ni voqelantiruvchi til birliklarining lingvokognitiv, psixolingvistik, sotsiolingvistik va lingvostilistik tavsifi	8
Umurzaqova N.S. Bo'lajak farmaseftlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	13
Камалходжаева С.С. Язык как объект лингвистического исследования	16
Абдуллаева А.Э. Современные и передовые педагогические технологии в преподавании иностранных языков	19
Karimov O.T., Mirzayev O.X. Talabalarni iqtidorli o'quvchilar bilan "lumiye" metodi asosida ishlashga tayyorlashning didaktik imkoniyatlari	23
Jo'rayeva M.A. Kasbiy tayyorgarlikni integrativ yondashuv asosida shakllantirish	29
Ikromov M.X., Abduraimova M.A. Talabalarga muhandislik kompyuter grafikasidan foydalanib o'qitishning mazmuni	33
Ikromov M.X., G'ulomova M.N. Rangtasvir darslarida axborot-kommunikatsiya va vizual texnologiyalardan foydalanish	37
Mamatisaqova G.A. Farmasevtika ishi yo'nalishida kompetensiyaga asoslangan ta'limni rivojlantirishda xorij tajribasi	41
Mamadaliyev B.K. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar uchun kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi amaliy mashg'ulotlar tizimini ishlab chiqish	45
Axmedova D.X. Boshlang'ich ta'limda ijodiy yozuv ko'nikmalarini shakllantirishning yangi metodlari	48
Kosimova G.M. Yangi pedagogik texnologiyalar vositasida darsliklar bilan ishlash bo'yicha o'quv jarayonini loyihalash	53
Xoldarova M.Q., Tairova M.B. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida nutq o'stirish darslari orqali "soft skills" ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	57
Abdurahmonova H.V. Saniye Benjik Kangalning o'yin pedagogikasi va rivojlantiruvchi muhit haqidagi qarashlari	61
Xurshidbekov A.M. Erkin kurashchilarda tezlik sifatining shakllanishi va rivojlanishining uslubiy asoslari	67
Olimjonov O.O. Integratsiyalashgan tarbiya: talabalarda jismoniy salohiyat va ma'naviy immunitetni shakllantirish usullari	71
Usarov M.M. Talabalar estetik kompetensiyalarini rivojlantirishda milliy xalq o'yinlaridan foydalanining dolzarbligi	75
Karimova F.Z. Integrativ yondashuv asosida bolajak tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning nazariy -metodologik asoslari	80
Xakimov Sh.T. Yosh belbog'li kurashchilarga texnik usullarni o'rgatish bosqichlari	83
O'rinboyev L.X. Farmakodinamikaning fan sifatida farmakologiyada tutgan o'rni	89
Sobirjonov I.T. Farmakokopetentlik tushunchasi va uning asosiy komponentlari	95
No'monova G.D. Klinik farmakologiya fani o'qitish tizimining amalyotdagi holatini kredit-modul tizimi asosida tashkil etish	100
Xodjayev M.K. Oliy ta'lim muassasalarida futbol murabbiylarini tayyorlashning pedagogik aspektlari	105
Kodirov M.A., Otashev D.R. Basketbolda sportchilarni jaroxatlanishni oldini olish va tiklash usullari	110
Samatov D.T., Abdullaev G'A. Umumta'lim maktablarida yuqori sinf o'quvchilarining maxsus jismoniy tayyorgarligini darsdan tashqari mashg'ulotlar asosida rivojlantirishning pedagogik modeli	114
Samatov D.T., Abdullaev G'A. Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda darsdan tashqari mashg'ulotlarni innovatsion yondashuv asosida tashkil etish metodikasi	118
Mullajonov Sh.I. Sport turlarining tavsifi va sportchi faoliyatida ruhiy tayyorgarlikning roli	124
Otashev D.R., Otasheva O.H. O'smirlarnigh psixologik munosabatlari shakllantirishda jismoniy tarbiyani o'rni	129

asarni chuqur, teran va ilmiy asosda tadqiq etish — matnning ta'sirchan, jozibali va sirli jihatlarini ochish, yangi ma'no qirralarini kashf etish imkonini yaratadi. Bu esa, o'quvchilarning ma'naviy dunyoqarashini kengaytirish, estetik didi va insoniy fazilatlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Tadqiqotchi o'qituvchi o'qitish metodlari, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish strategiyalari, didaktik ta'minotni boyitish yo'llari, talabalarning o'zlashtirish darajasini rivojlantirish mexanizmi va shu kabi dolzarb mavzularda ilmiy-tadqiqotlar olib boradi. OTM miqyosidagi ilmiy-o'quv seminarlar, Respublika, Xalqaro konferensiyalar hamda ilmiy nashrlar tadqiqot ishlarining ommaviylashuvida, rasmiylashtirib borilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik amaliyotchilik kompetensiyasi. Adabiyot o'qituvchisining pedagogik amaliyotchilik faoliyati uning ilmiy tadqiqotchiligiga yaqin turadi. O'qituvchi oliy maktabda va mustaqil tarzda o'zlashtirgan nazariy va metodik bilimlarini amalda qo'llay olgandagina adabiyot o'qitish muayyan samara keltiradi. Badiiy adabiyotning o'ziga xosligini saqlagan holda bir saboq davomida uni o'quv adabiyotiga aylantirish, o'quv tahlilini amalga oshirish, badiiy matnni o'quvchilarning yosh xususiyatlari, tayyorgarlik darajalari, muayyan vaqtdagi ruhiy holatlariga mos ravishda taqdim etish choralarini ko'rish adabiyot o'qituvchisidan faqat bilimdon mutaxassisliknigina emas, balki kerakli didaktik tadbirni o'z vaqtida ko'ra oladigan tadbirkor amaliyotchi-metodist bo'lishini taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyot o'qituvchisining jamiyatda tutgan o'rni, ta'lim tizimidagi mavqei, pedagogik maqomi uning kasbiy kompetensiyalariga, kompetentligiga qat'iy bog'liqdir. Zero, zamonaviy ta'lim muhitida yoshlarni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash uchun pedagoglardan yuksak kasbiy bilim, metodik ustuvorlik, ijodkorlik kabi qobiliyatlar talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zunnunov A., Esonov J., Xotamov N., Ibragimov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: "O'qituvchi", 1992. 77-b.
2. Inomxo'jaev S., Zununov A. Ifodali o'qish asoslari. -T.: "O'qituvchi", 1973. 223-b.
3. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. -T.: "O'qituvchi", 1996.
4. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitish metodikasi fanidan ma'ruzalar matni. – T.: O'zbekiston Milliy universiteti, 2010. 3-b.
5. Yo'ldoshev Q., Madaev O., Abdurazzoqov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. -T.: "Universitet", 1994. 92-b.
6. Занков Л.В. Избранные педагогические труды. Беседы с учителями. -М., Издательство: Педагогика, 1990, 139-с.

UO'K: 303.823

"GIPERBOLA KONSEPTUAL SEMANTIKASI"NI VOQELANTIRUVCHI TIL BIRLIKLARINING LINGVOKOGNITIV, PSIXOLINGVISTIK, SOTSIOLINGVISTIK VA LINGVOSTILISTIK TAVSIFI

<https://zenodo.org/records/18754551>

Qoraboyev Jasurbek Bohodirovich
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Maqola tilshunoslikda mubolag'alachgan frazeologik birliklarning o'ziga xos lingvokognitiv, psixolingvistik, sotsiolingvistik va lingvostilistik xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, unda ingliz va o'zbek tillarida mubolag'alachgan til birliklarining o'rni hamda axborot yetkazishdagi roli va ularning kognitiv konseptual xususiyatlari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: frazeologik birlik, giperbola, ekvivalentlik, ekspressiv, kognitiv, emosema, metatil.

Аннотация: Статья посвящена анализу специфических лингвокогнитивных, психолингвистических, социолингвистических и лингвостилистических характеристик гиперболических фразеологических единиц в лингвистике. Рассматривается роль гиперболических языковых единиц в английском и узбекском языках, их роль в передаче информации, а также их когнитивно-концептуальные характеристики.

Ключевые слова: фразеологическая единица, гипербола, эквивалентность, экспрессивный, когнитивный, эмосема, метаязык.

Abstract. The article discusses the analysis of specific linguacognitive, psycholinguistic, sociolinguistic and linguastylistic characteristics of hyperbolic phraseological units in linguistics. The role of hyperbolic linguistic units in English and Uzbek, their role in transmitting information, as well as their cognitive-conceptual characteristics are considered. Key words: Phraseological unit, hyperbole, equivalence, expressive, cognitive, emoseme, metalanguage.

Keywords: Phraseological unit, hyperbole, equivalence, expressive, cognitive, emoseme, metalanguage.

Ma'lumki, til eng yaxshi va qulay muloqot vositasi sifatida tilda so'zlashuvchi/yozuvchilarga sitqidildan xizmat qilib keladi, ularning ob'yektiv dunyo manzarasi haqidagi bilimlarining shakllanishiga, boyishiga va kundalik muloqotda fikr almashib, o'zlashtirilgan bilimlarni hayotda ongli qo'llanilishiga puxta zamin yaratadi.

Til bir vaqtning o'zida muloqot quroli sifatida ham individual, ham umumiy tavsifga ega, chunki u mazkur tilda so'zlashuvchi/yozuvchi jamoa uchun, bir tomondan, umumiy bo'lsada, ikkinchi tomondan, til o'zining har bir so'zlashuvchi/yozuvchi vakili uchun individual - xususiy jihatlari borligi bilan farqlanib turadi. Buning sababi shundaki, tilda so'zlashuvchi/yozuvchining u yoki bu tildan foydalanish layoqati sub'yektiv asosga ega bo'lib, idiolektal tabiatga ega. Demak, bunday layoqat, avvalam bor, uning tildagi bilimlari qamrovi (ya'ni *lingvosferasi-linguosphere*)ga, uning til bo'yicha bilimlari maj'muasi, (ya'ni *lingvaliteti - linguality*), shunday bilimlarni qo'llay bilish layoqati (ya'ni "lingvabiliteti" – *linguability*), shuningdek uning muloqot olib borish bo'yicha bilimlari majmuasi (ya'ni «*kommunikaliteti*»- *communicality*), qolaversa mazkur bilimlardan muloqotda ongli va to'g'ri foydalana olishlik va muloqotni adekvat olib bora olishlik layoqati (ya'ni «*kommunikabiliteti*»- *communicability*) bilan ham bevosita bog'liqdir [1].

Har bir tilda o'zlashuvchi/yozuvchi ob'yektiv (yoki sub'yektiv) borliq haqida o'zgaralar bilan muloqotga kirishish oldidan o'zining tafakkuridagi shu borliqni in'ikos qilishga asos bo'lgan, *freymlashgan* konseptlar yig'indisi, ya'ni konseptosferasi, shuningdek konseptual bilimlari maj'muasi, ya'ni "konseptualiteti" imkoniyatlaridan kelib chiqib, o'zining u yoki bu konseptual voqelikka daxldor ruhiy kechinmalari va tuyg'ulariga asoslangan holda ularni tilda voqelantirishga xarakat qiladi, ya'ni o'zining lingvosferasi va lingvaliteti va lingvabilitetini ishga soladi, shu yo'sinda so'zlovchi yoki yozuvchining nutqi murakkab psixolingvistik jarayon natijasi sifatida shakllanadi va kommunikantga qarab yo'naltiriladi, vaxolanki shunday usulda nutq akti amalga oshiriladi.

Demak, xulosa qilib aytsak, o'zbek tili, masalan, ko'pchilik uchun umumiy til hisoblansada, mazkur tilda so'zlovchi/yozuvchilarda kerakli muloqotlar olib borish imkoniyatlari har xil bo'lishi tabiiy ekan, chunki har bir tilda so'zlovchi/ yozuvchining u yoki bu tilda muloqot olib borish layoqati uning konseptosferasi va konseptualitetining tor yoki kengligiga, shuningdek uning kommunikabilitetiga ham bevosita bog'liq, vaxolanki bunday omillarning barchasi har bir tilda so'zlashuvchi// yozuvchining idiolektini tashkil etadi.

Shu nuqtai nazardan olganda, bir tilda so'zlashuvchi//yozuvchilar undan foydalanilayotganlarida uning individual va umumiy jihatlarini keltirib chiqaruvchi ikki muhim omil, ya'ni lingvistik va nolingvistik omillar borligini e'tirof etish joiz.

Bir tomondan olib qaraganda, lingvistik omillar tilda so'zlashuvchilarning til bo'yicha, (xususan giperbolemalar bo'yicha) bilimlari qamrovi, ya'ni lingvosferasi (to'g'rirog'i, "giperlingvosferasi"-*hyperlinguosphere*), qolaversa mazkur bilimlar yig'indisi, maj'muasi, ya'ni lingvaliteti (to'g'rirog'i, "giperlingvaliteti" -*hyperlinguality*) va uni to'g'ri qo'llay olish, ya'ni kommunikativ-pragmatik jihatdan ularni muloqotda adekvat qo'llay olish layoqati (ya'ni "giperlingvabiliteti"-*hyperlinguability*) va u bilan bog'liq bir qator boshka omillar bilan uzviy bog'liq. Ikkinchi tomondan olib qaralganda, nolingvistik omillar bevosita tilda so'zlashuvchi//yozuvchining o'z bilimlarini (xususan, giperbolemalar bo'yicha bilimlari majmuasi, so'zlashuvchining giperbolemalarning struktural-semantik, kommunikativ-pragmatik, lingvokulturologik, lingvostilistik jihatlarini bo'yicha bilimlari)ni qo'llayotganda ularning kognitiv, psixologik va sotsiologik aspektlarining lingvistik aspekti bilan chambarchas bog'liq ekanligini e'tirof etish joizdir. Bunday holat giperbolemalarni tadqiq qilishda ularning nafaqat lingvistik (struktural-semantik, funksional (kommunikativ-pragmatik) va lingvostilistik jihatlarini (bo'yoqlari, funksiyalari, konvergentsiyasi), balki lingvokognitiv, psixolingvistik, sotsiolingvistik va lingvokulturologik jihatlarini ham e'tibordan chetda qoldirmaslikni taqozo etadi [2].

Taxlillarmiz shuni ko'rsatdiki, giperbolemalarning lingvistik jihatlarini ularni voqealantiruvchi verbalizatorlarning lisoniy belgilik xususiyatlari, struktural-semantik jihatlarini va ularning muloqotda qo'llanish qonuniyatlari bilan bog'liq ekan.

Giperbolemalarning lingvokognitiv jihatlarini esa so'zlashuvchi/yozuvchilarning ongida, tafakkurida mavjud bo'lgan universal konseptual semantika, xususan, "giperbola konseptual semantika"si mazkur emik birliklarning lingvokognitiv asosini tashkil kilishini e'tirof etish bilan tushuntiriladi.

Har qanday konseptual semantika kabi, "giperbola" konseptual semantikasi ham muloqot uchun zarur bo'lgan semantikalar sirasiga kiradi, chunki usiz (ya'ni mazkur semantika til vositalari orqali voqealantirilmasa) muloqot talab darajasida kechmaydi, to'laqonli bo'lmaydi.

Shunisi e'tiborga molikki, har bir konseptual semantika, shu jumladan "giperbola" konseptual semantikasi ham, tilda so'zlashuvchilar kommunikativ (muloqot) maqsadlari (intensiyalari) bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularni amalga oshirishga bevosita xizmat qilishi umumlisoniy qonuniyatdir. Ongdagi, tafakkurdagi har qanday konseptual semantika(ya'ni konsept) tilda uni voqealantiruvchi maxsus vositalar, ya'ni verbalizatorlar (reprezentantlar yoki voqealantiruvchi vositalar) bo'lishini so'zsiz taqozo etadi [3].

Tadqiq qilinayotgan emik birlik sanalmish "giperbolema"larning o'ziga hos psixolingvistik jihatlarini ham borki, ular yordamida mazkur birliklarning tilda so'zlovchilar nutqida etik birlik, ya'ni "giperbola" sifatida qo'llanishi va ularning funksional tavsifi va tasnifi masalalari ko'rib chiqiladi. Demak, giperbolemalarni nutqda qo'llash uchun ularning til unsuri sifatida shakllanishi va qurilishida shunday bir muhim psixologik (to'g'rirog'i, psixolingvistik) vaziyat va omil zarurki, ular giperbolemalar verbalizatorlarining tegishli turini muloqot ehtiyojiga ko'ra tanlashga, uni to'g'ri qo'llashga turtki beradi va bunga erishiladi ham.

Ko'rinib turibdiki, giperbolemalarning psixolingvistik aspekti ham tilda so'zlovchilar kommunikativ-pragmatik maqsadlari (intensiyalari)ni ro'yobga chiqarishga bevosita xizmat

qilishi tabiiy. Demak, kommunikativ-pragmatik maqsad (intensiya)lar psixologik vaziyatda tilda so'zlovchi/yozuvchining kayfiyati, niyati va maqsadini aynan muloqot uchun hos va mos qilib voqelantirish uchun turtki vazifasini o'taydi, shu yo'sinda muloqot ehtiyojiga ko'ra til unsurlari tanlanadi, qo'riladi va qo'llaniladi, shunday ravishda botiniy nutq zoxiriy nutqqa aylanadi.

Taniqli tilshunos Sh.Safarov ta'biri bilan aytganda "moddiy dunyo idroki ayni paytda idrok etilayotgan predmet – hodisalar haqida tushuncha tug'ilishini, keyinchalik ushbu tushuncha mental namuna – *konsept* sifatida shakllanib, moddiy nom olishini taqozo qiladi. Bu xildagi ko'p bosqichli *lingvopsixik faoliyatning natijali* (natija muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz bo'lishidan qat'iy nazar) kechishida asosiy rolni *lisoniy xotira* o'ynaydi".

Demak, bu ma'noda olinganda bunday ko'p qirrali "lingvopsixik jarayon"ning u yoki bu darajada kechishida tilda so'zlovchining "lingvosferasi", "lingvaliteti", "lingvabiliteti" bilan birga uning "kommunikasferasi" kommunikaliteti" va "kommunikabiliteti" bilan, bevosita bog'liq bir qator boshqa betakror omillar, ya'ni "*kulturosfera*", "*kulturalitet*", "*kulturabilitet*" kabi omillar ham muxim ahamiyat kasb etadi [4].

Ingliz va o'zbek tillarida giperbola bo'yicha faktik materiallarning taxlili shuni tasdiqlaydiki, mubolag'alashgan semantikali til birliklari, turli qurilmalar tilda so'zlovchi /yozuvchilarning tabiiy *ruhiiy* holatini ifodalashga bevosita xizmat qiladigan verbal vositalar bo'lib, ularning giperbola orqali hissiyot, ehtiros, hayajon va shular kabi turli ichki kechinmalarni ifodalash imkoniyatlari cheksiz. Masalan, giperbola orqali quyidagi sezgi, hislar va ichki kechinmalarni voqelantirish mumkin: sevgi, muhabbat, ishq, nafrat(yomon ko'rishlik, ko'ra olmaslik), hayratlanish, ajablanish, yolg'izlik, birga aziyat chekish, quvonish, g'azablanish, qaxramonlik, sotqinlik, go'zallik, xunuklik (beo'xshovlik), qobiliyatlilik, qobiliyatsizlik, qudratlilik, o'zlik, do'stlik, dushmanlik, o'xshatish, ajratib ko'rsatish, zavqlanish, azoblanish, iztirobga tushish, to'lqinlanish, kamsitilish, maqtalish va h.k.

Odatda tilda so'zlashuvchi oddiy kishilar yoki badiiy asarlar qaxramonlari, tilda so'zlashuvchilar yoki yozuvchilar o'zlarining turli tabiiy ruxiy holatlaridan, ichki kechinmalaridan kelib chiqib, shunday til vositalariga murojat qiladilarki, ular bunday verbal vositalar orqali ob'yektiv dunyodagi voqea, predmet va xodisalarning eng kuchli daraja yoki miqdorining tavsifini ta'sirchan va to'laqonli qilish maqsadida giperbolalashtirib ifodalashga erishadilar, chunki mazkur verbal vositalar tilda so'zlashuvchilarning kommunikativ-pragmatik maqsadlari, muddaolari va niyatlari (intensiyalari)ga to'laqonli erishishlarini ta'minlovchi maxsus vositalardir.

A.A.Potebnya ta'biri bilan aytganda "giperbola" tilda so'zlashuvchi/yozuvchining ma'lum bir kuchli sezgidan, hissiyotdan lol bo'lib qolishi omili unga narsa va hodisalarning haqiqiy hajmi, sig'imi (miqdori, sifati, darajasi, holati - J.K.)ni to'g'ri ko'rishga xalaqit beradi.

Shunday qilib, "giperbola" odatda ob'yektiv borliqdagi voqea, hodisa va predmetlarning holatliy, miqdoriy va darajaviy xususiyatlarini ifodalashning eng qulay va maxsus vositasidir, chunki ularning tabiiy holatini ifodalashdan ataylab qochish tilda so'zlovchi/yozuvchining o'zidagi sub'yektiv emotsional holatni o'zi hohlagan darajada, shaklda bo'rttirib, giperbolalashtirib ifodalash muddaosi bilan bevosita bog'liqdir.

Giperbolemalarning sotsiolingvistik jihatlari shunisi bilan muhimki, ular giperbolemalarni qaysi sotsial qatlamga tegishli tilda so'zlovchi/yozuvchilar mazkur til birliklarining qanday turlaridan qayerda, qachon va nima uchun, qanday maqsadlarda, qanday

kayfiyatda va ruhiyatda qo'llashlarini belgilab beradi. Demak, u yoki bu giperbolemaning nutqda qo'llanilishi o'z o'zicha kechaveradigan voqelik bo'lmay, balki sotsiolingvistik omillar tomonidan ham boshqariladigan murakkab jarayon bo'lib, uning kim tomonidan, mavjud sotsial qatlamning u yoki bu so'zlovchi/yozuvchisi tomonidan o'rinli, ongli va maqsadli qo'llanilishiga asos bo'ladi (agar jamiyatda iste'molda yonma-yon qo'llaniladigan tillar bo'lsa, unda "substrat, superstrat, adstrat" hodisalariga e'tibor qaratilishi ham lozim, masalan, ruscha "slishkom, chereschur, bespardonno", inglizcha "super", o'zbekcha "zo'r", kabi giperbola so'zlari xalq iste'molidagi o'zga tillar tomonidan o'zlashtirilishi va muloqotda qo'llanilishi mumkin va h.k.) [5].

Bundan kelib chiqadiki, tilda giperbolik vositalarining u yoki bu shaklda va maqsadli qo'llanilishi tilda so'zlovchilarning, eng avvalo, sotsial maqomi, hayoti, atrofidagi sotsial muhit (oila, ish joyi), tarbiyasi, kasbi, kundalik faoliyati, xobbisi, "konseptosferasi (monokonseptosferasi / polikonseptosferasi)", "konseptualiteti (monokonseptualiteti/ polikonseptualiteti)", "lingvosferasi (monolingvosferasi/ polilingvosferasi)", "lingvaliteti (monolingvaliteti/ polilingvaliteti)", shuningdek kayfiyati, ruhiyati, qolaversa, fe'l-atvori, tabaati, mijoz va boshqa omillarga ham bevosita bog'liqdir. Bunday omillarning barchasi jonli muloqotda ma'lum bir jihat tavsifi darajasini giperbolalashtirilib voqelantirilishida aniq ko'zga tashlanadi.

Giperbolemalarning lingvokulturologik jihatlariga kelsak, ular mazkur til birliklarning lingvokulturemalar sifatida qo'llaniishida o'zlarini yorqin namoyish etadilar. Ma'lumki, "lingvokulturema" shunday til birligiki, u o'zi ichiga denotativ ma'nosi bilan bir qatorda madaniyat semantikasini ifodalovchi kamida bir komponentni ham mujassamlantirgan bo'ladi. Masalan, o'zbek tilida "Daqqiyunusdan (Daqqiyonusdan) qolgan narsa", "Almisoqdan qolgan narsa", "enangni Uchqo'rg'onidan ko'rsataman", "arshi a'lo", "boshi osmonga yetmoq", "asfalasofunga jo'natmoq", "oyog'ini qo'lga olib yugurmoq", "o'pkasini qo'ltiqamoq", "yuragidan joy bermoq", "yorug' dunyo menga qorong'i", "keng dunyo menga tor(giperbolik oksyumoronlar), ingliz tilida "in seventh heaven, to meet one's Waterloo, as sly as a fox, honey, to run at a break neck speed, to run one's guts out(bejat slomya golovu (skakat i t. p.)), to run like mad, to run at a breakneck speed; to rush off headlong; to run helter-skelter; to run for one's life kabi frazeoyemalar, rus tilida kabi "sedmoye nebo", "Ya tebe ustroyu Samaru", shuningdek ingliz tilida "honey", "sweetheart", "chocolate", o'zbek tilida "asalim", "shakarim", "qo'zichog'im", "bo'talog'im", rus tilida "moy porosenok", "golubushka", "lapochka moya" kabi giperbolik klishelar giperbolemalar qatoriga kiradi [6].

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, mubolag'lashgan semantikali verbalizatorlar, xususan, frazeoyemalar o'zlarining asosiy semantikasi - "giperbola" bilan bir qatorda ma'lum madaniyat semantikasini ham ifodalayapti va muloqotning adekvat kechishiga puxta zamin yaratyapti, shu yo'sinda ular lingvokulturema, to'g'rirog'i "frazekulturema" vazifasini o'tayapti desak giperbola bo'lmaydi.

Giperbolemalarning lingvostilistik jihatlarini ularning troplar va nutq figuralari kabi stilistik vositalar vazafasida qo'llanganda yorqin namoyon bo'ladi. Muloqotda bunday vositalarning kommunikativ-pragmatik jihatdan qo'llanilishi u yoki bu tilda so'zlashuvchi//yozuvchining idiositili yoki idiolekti bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular bevosita adabiy stilning yoki shevaning iste'moldagi ma'lum ko'rinishlarini tashkil etadilar va shu yo'sinda so'zlashuvchi//yozuvchining muloqotdoshiga sezilarli yoki kuchli ta'sir etishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, shunday xulosa qilishimiz mumkinki, giperbolemalarning lingvokognitiv, struktural-semantik, kommunikativ-pragmatik, lingvokulturologik va lingvostilistik jihatlarini bilan bir qatorda ularning psixolingvistik va sotsiolingvistik jihatlarini ham ilmiy tadqiq qilish, giperbolemalarning tilda paydo bo'lish va nutkda qo'llanish sabab va omillarini atroflicha ochib berishga puxta zamin yaratadi va ilmiy izlanishning to'lakonli bo'lishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бабенко Л.Г. Функционально-семантический класс глаголов эмоциональной деятельности. сб. науч. тр. - Новосибирск, 1985. - С. 41-48.
2. Кунин А.В. О фразеологической дефиниции. Сб. науч. тр. - М., 1987. - Вып. 287. — С. 109-118.
3. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – 92 b.
4. Умарходжаев М.И. Основы фразеологии: Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – М, 1983. – 132 с.
5. Yusupov O'.Q. Ma'no, tushuncha, konsept va lingvokulturema atamallari xususida // Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlarida mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2011.
6. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии: Автореф. дис. ...д-ра филол. наук. /Н.Н. Амосова. - Ленинград, 1962. – 27 с.

UO'K: 378.147:615.01

BO'LAJAK FARMASEFTLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

<https://zenodo.org/records/18754559>

Umurzaqova Nasibaxon Suyarjanovna
Qo'qon universiteti Andijon filiali

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak farmasevtlarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan o'quv-tarbiyaviy jarayon metodikasi yoritiladi. Tadqiqotning asosiy e'tibori "Tushunib harakat qilamiz", "Tez va aniq harakat", "Amaliy ko'nikmalarni modellashtirish" kabi metodlarning samaradorligini baholashga qaratilgan. Natijalar ushbu metodlar farmasevtik ta'limda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda yuqori natija berishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetensiyalar, bo'lajak farmasevt, kompetensiyaviy yondashuv, tushunib harakat qilamiz metodi, tez va aniq harakat metodi, klinik fikrlash, farmasevtik texnologiya, innovatsion pedagogik metodlar, farmasevtik amaliyotga tayyorgarlik.

Аннотация. В данной статье рассматривается методика организации образовательного процесса, направленного на формирование и развитие профессиональных компетенций будущих провизоров. Основное внимание в исследовании уделено оценке эффективности таких методов, как «Действуем с пониманием», «Быстрые и точные действия», «Моделирование практических навыков». Результаты исследования показали, что данные методы дают высокие результаты в формировании практических навыков в фармацевтическом образовании.

Ключевые слова: профессиональные компетенции, будущий фармацевт, компетентностный подход, метод понимания и действия, метод быстрых и точных действий, клиническое мышление, фармацевтические технологии, инновационные педагогические методы, подготовка к фармацевтической практике.

Abstract. This article discusses the methodology of the educational process aimed at the formation and development of professional competencies in future pharmacists. The focus of the study is on assessing the effectiveness of techniques such as "we try to understand", "quick and clear action", "modeling practical skills". The results shows that these techniques produce a high performance in the formation of practical skills in Pharmaceutical Education.

